

KOREYS TILINI O'RGANISHNING 6 TA ZAMONAVIY USULI

Shukurullayeva Nozima

Kimyo International University in Tashkent, Namangan filiali

804-guruh talabasi Koreys tili filologiyasi yo'nalishi

O'zbekiston, Namangan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22857170>

ANNOTATSIYA: Bugungi globallashuv sharoitida xorijiy tillarni o'rganish shaxsning ta'limiy, kasbiy va madaniy imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim omillardan biridir. So'nggi yillarda koreys tilini o'rganishga bo'lgan xalqaro qiziqishning ortishida Janubiy Koreyaning iqtisodiy va texnologik rivojlanishi, oliy ta'lim imkoniyatlari, K-pop, K-drama va boshqa madaniy mahsulotlarning global tarqalishi muhim rol o'ynamoqda. Xususan, King Sejong Institute Foundation ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda dunyo bo'yicha 216 226 nafar tinglovchi King Sejong institutlarining onlayn va oflayn koreys tili kurslarida tahsil olgan; bu ko'rsatkich 2022-yildagi 178 973 nafar o'quvchiga nisbatan 20,8 foizga ko'pdir [1]. Mazkur holat koreys tilini samarali o'qitish va o'rganish metodlarini ilmiy jihatdan takomillashtirish zaruratini kuchaytiradi.

Ushbu maqolada koreys tilini o'rganishda qo'llanishi mumkin bo'lgan oltita zamonaviy yondashuv — raqamli flashcard va interval asosida takrorlash, tajribali o'qituvchi feedbacki, sun'iy intellekt vositalari, koreys audiovizual kontentidan foydalanish, kundalik yozma amaliyot hamda TOPIK orqali diagnostik baholash — tahlil qilinadi. Tadqiqotda ikkilamchi manbalarni tahlil qilish, ilmiy maqolalarni qiyoslash va pedagogik natijalarni umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tahlil natijalari samarali til o'rganish yagona vositaga emas, balki lug'at, kommunikativ faoliyat, tinglab tushunish, yozish, feedback va muntazam baholashni birlashtirgan kompleks tizimga tayanishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: koreys tili, xorijiy til, Quizlet, interval asosida takrorlash, sun'iy intellekt, K-drama, subtitrl, kommunikativ kompetensiya, TOPIK, mobil ta'lim, lug'at, til o'rganish.

Kirish

Xorijiy tilni o'rganish zamonaviy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Til bilimi insonning xalqaro ta'lim dasturlarida ishtirok etishi, xorijiy manbalardan foydalanishi, mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishi va boshqa madaniyat vakillari bilan bevosita muloqot qilishi uchun imkoniyat yaratadi. Shu nuqtayi nazardan, koreys tiliga bo'lgan talabning ortishi alohida ilmiy va pedagogik ahamiyatga ega.

Koreys tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishi faqat tilning o'zi bilan bog'liq emas. Koreya Respublikasining iqtisodiy, texnologik va madaniy rivojlanishi koreys tilining xalqaro ta'lim makonidagi mavqeiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Korea Foundation va Janubiy Koreya Tashqi ishlar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda Hallyu, ya'ni koreys madaniy to'liqini bilan bog'liq global muxlislar soni 200 milliondan oshgan. Ushbu ma'lumot 119 mamlakatni qamrab olgan hisobotga asoslangan [2]. K-pop va koreys seriallari kabi madaniy mahsulotlarning keng tarqalishi koreys tiliga bo'lgan qiziqishni ham rag'batlantirmoqda.

Koreys tilining xalqaro o'rganilish ko'lamini King Sejong institutlari faoliyati ham ko'rsatadi. 2024-yilda King Sejong

Institute Foundation 15 mamlakatda 18 ta yangi institut tashkil etilganini va institutlarning umumiy soni 88 mamlakatda 256 taga yetganini ma'lum qildi [1]. 2023-yilning o'zida mazkur institutlarda 216 226 nafar o'quvchi koreys tilini o'rgangan [1].

Koreys tilini o'rganish jarayonida grammatik tuzilma, so'z boyligi, talaffuz, tinglab tushunish va nutqiy vaziyatga mos til birliklarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, koreys tilidagi hurmat va nutq darajalari o'rganuvchidan grammatik bilim bilan bir qatorda pragmatik kompetensiyani ham talab qiladi. Koreys tili darsliklaridagi hurmat shakllarini tahlil qilgan tadqiqotlarda ushbu grammatik hodisaning turli nutqiy vaziyatlarda o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi ko'rsatilgan [3].

Shuning uchun koreys tilini o'rganish faqat so'zlarni yodlash yoki grammatik qoidalarni o'zlashtirish bilan chegaralanmasligi kerak. Zamonaviy yondashuv o'quvchini real kommunikativ faoliyatga jalb qilishi, muntazam takrorlashni ta'minlashi, individual xatolarni aniqlashi va o'rganish natijasini obyektiv baholash imkonini berishi lozim.

Mazkur maqolaning maqsadi koreys tilini o'rganishda qo'llanishi mumkin bo'lgan oltita zamonaviy metodni ilmiy manbalar asosida tahlil qilish va ularning pedagogik imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Metodologiya

Tadqiqot nazariy-analitik xarakterga ega bo'lib, unda koreys tili ta'limi, ikkinchi tilni o'zlashtirish, mobil ta'lim, lug'at o'rganish, corrective feedback, audiovizual materiallardan foydalanish, sun'iy intellekt va tilni baholashga oid ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy maqolalar, meta-tahlillar, rasmiy tashkilotlarning statistik ma'lumotlari va koreys tili ta'limiga oid ilmiy manbalardan foydalanildi. Asosiy e'tibor tajriba va meta-tahlillarda ishtirokchilar soni, tadqiqot dizayni, o'rganilgan til ko'nikmalari va aniqlangan pedagogik natijalarga qaratildi.

Birinchi metod sifatida interval asosida takrorlash va retrieval practice; ikkinchi metod sifatida o'qituvchi feedback; uchinchi metod sifatida sun'iy intellekt asosidagi individual mashg'ulotlar; to'rtinchi metod sifatida subtitrli audiovizual materiallar; beshinchi metod sifatida muntazam yozma amaliyot; oltinchi metod sifatida TOPIK orqali diagnostik baholash tanlandi.

Bunda muhim metodologik cheklov mavjud: ayrim tadqiqotlar bevosita koreys tiliga emas, balki boshqa ikkinchi yoki uchinchi tillarni o'rganishga bag'ishlangan. Shu sababli ularning natijalari koreys tiliga mexanik ravishda ko'chirilmaydi; ular koreys tili o'rganish metodlari uchun umumiy pedagogik dalil sifatida talqin qilinadi.

Natijalar

Raqamli flashcard va interval asosida takrorlash

Xorijiy til o'rganishda lug'at boyligi asosiy komponentlardan biridir. Biroq yangi so'zni bir marta ko'rish uni uzoq muddatli xotirada saqlashni kafolatlamaydi. Shu sababli zamonaviy til o'rganish platformalarida retrieval practice va spaced repetition kabi yondashuvlar keng qo'llanadi.

Tatsuya Nakata tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda 128 nafar yaponiyalik kollej talabasi ishtirok etgan. Ishtirokchilar 20 ta inglizcha-yaponcha so'z juftligini o'rgangan va takrorlash oralig'ining turli shakllari taqqoslangan. Tadqiqot natijasida interval bilan takrorlashning umumiy ta'siri katta bo'lgani, kengayib boruvchi takrorlash esa teng intervaldagi takrorlashga nisbatan statistik jihatdan kichik, ammo sezilarli ustunlik bergani aniqlangan [4, pp. 677–711].

Mazkur natija koreys tilidagi so'zlarni o'rganishda ham metodik ahamiyatga ega. Masalan, 먹다, 공부하다, 학교, 친구

kabi so'zlarni faqat ro'yxat shaklida qayta o'qish o'rniga, ularni xotiradan esga tushirish, tarjimasini topish, koreyscha shaklini qayta tiklash va gap ichida qo'llash samaraliroq mashq bo'lishi mumkin.

Retrieval practice bo'yicha boshqa tadqiqotlarda ham xotiradan faol chaqirib olish oddiy qayta o'qishga nisbatan foydaliroq natijalar berishi mumkinligi ko'rsatilgan. Yanagisawa tadqiqotida 18 nafar yapon universitet talabasi 24 ta yangi so'z bilan ishlagan va faol esga tushirish sharoitlari nazorat sharoitiga nisbatan yaxshiroq natija bergan [5, pp. 139–152].

Shunday qilib, Quizlet kabi flashcard platformalari o'z-o'zidan "sehrli" vosita emas. Ularning pedagogik qiymati faol esga tushirish, takrorlash oralig'i va muntazam foydalanish tamoyillariga bog'liq.

Tajribali o'qituvchi va corrective feedback

Raqamli texnologiyalar rivojlanayotganiga qaramay, o'qituvchining roli til o'rganishda muhimligicha qolmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri — o'quvchining xatosini aniqlash va uning kommunikativ sababini tushuntirishdir.

Lyster va Saito tomonidan 15 ta sinf tadqiqoti hamda 827 nafar ishtirokchi ma'lumotlari asosida amalga oshirilgan meta-tahlilda og'zaki corrective feedback til rivojiga sezilarli va davomli ta'sir ko'rsatgani aniqlangan [6, pp. 265–302]. Tadqiqotda ayrim feedback shakllari boshqalariga qaraganda samaraliroq bo'lishi mumkinligi ham ko'rsatilgan.

Bu natija koreys tilini o'rganishda ayniqsa muhim.

Masalan, o'quvchi 저는 학생이에요 va 제가 학생이

예요 shakllarini grammatik jihatdan tushunishi

mumkin, biroq ularning kommunikativ urg'usini to'g'ri vaziyatda qo'llash uchun kontekst va feedback talab etiladi.

Koreys tilida hurmat shakllari ham o'qituvchining izohini talab qiladigan sohalardan biridir. Tadqiqotlarda koreys tilidagi hurmat va nutq darajalari suhbatdoshlar o'rtasidagi munosabat hamda kommunikativ vaziyat bilan bog'liqligi qayd etilgan [3; 7].

Shu sababli koreys tilini o'rganayotgan talaba uchun o'qituvchi nafaqat grammatika qoidalarini tushuntiruvchi, balki talaffuz, nutqiy vaziyat, grammatik shakl va pragmatik ma'noni bog'lab beruvchi pedagog sifatida namoyon bo'ladi.

Sun'iy intellektdan individual yordamchi sifatida foydalanish

Sun'iy intellekt so'nggi yillarda xorijiy til ta'limidagi eng tez rivojlanayotgan texnologiyalardan biridir. Generativ AI vositalari o'quvchiga dialog tuzish, matn yozish, grammatik xatolarni aniqlash, tarjima variantlarini solishtirish va turli kommunikativ vaziyatlarni simulyatsiya qilish imkonini beradi.

2024-yilda e'lon qilingan tadqiqotda ChatGPT va ikkinchi til o'rganishga oid 44 ta tadqiqot tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida ChatGPTdan foydalanishda kontekstni boshqarish va natijani foydalanuvchi ehtiyojiga moslashtirish asosiy prompt strategiyalaridan ekanligi aniqlangan. Tadqiqotlarda o'quvchining mustaqil ta'limi va yozma ko'nikmalariga alohida e'tibor berilgani qayd etilgan [8].

Boshqa tizimli sharhda 2022-yil noyabridan 2023-yil noyabrigacha nashr qilingan 36 ta ilmiy ish o'rganilgan. Unda ChatGPT til o'rganishda mustaqil ta'lim, kontent yaratish va o'qituvchi faoliyatini qo'llab-quvvatlash kabi turli vazifalarni bajarishi mumkinligi aniqlangan. Shu bilan birga, tadqiqotchilar feedback sifatini baholash va uzoq muddatli ta'sirni o'rganish zarurligini ta'kidlagan [9].

Koreys tilini o'rganishda AI vositasidan quyidagi tarzda foydalanish mumkin: o'quvchi avval koreys tilida javob tuzadi, keyin AI yordamida grammatik xatolarini tekshiradi. Masalan, AIga "Men TOPIK II uchun tayyorlanyapman. Men bilan koreys tilida suhbatlashing, javoblarimni darhol emas, suhbat yakunida tahlil qiling" kabi aniq topshiriq berish mumkin.

Biroq AI o'quvchining o'rniga vazifani bajarib bermasligi kerak. Pedagogik jihatdan samarali yondashuv — avval mustaqil fikrlash, keyin AI orqali tekshirish va xatolarni qayta ishlashdir.

Koreys media kontenti va subtitrlar videolar

Koreys tilini real kommunikativ kontekstda o'rganish uchun K-drama, podkast, intervyu, yangiliklar va boshqa audiovizual materiallardan foydalanish mumkin. Bunda oddiy tomosha bilan maqsadli til o'rganish o'rtasidagi farqni hisobga olish zarur.

Montero Perez, Peters va Desmet tomonidan amalga oshirilgan meta-tahlilda 18 ta tadqiqot tahlil qilingan. Ulardan 15 tasi tinglab tushunish, 10 tasi lug'at o'zlashtirish bilan bog'liq natijalarni o'rgangan. Tadqiqotchilar subtitrlar videolarining tinglab tushunish va lug'at o'zlashtirishga sezilarli ijobiy ta'sirini aniqlagan [10, pp. 720–739].

Bu natija koreys tilidagi K-drama va boshqa videolarni ta'limiy maqsadda ishlatish imkoniyatini asoslaydi. Masalan, o'quvchi birinchi bosqichda videoning umumiy mazmunini tushunadi, keyingi bosqichda koreyscha subtitrlar bilan ko'radi, yangi iboralarini qayd qiladi va so'ngi aktyor nutqini takrorlaydi. Koreys tili kontekstida ham subtitrlarning o'rganishga ta'sirini bevosita o'rgangan tadqiqotlar mavjud. Park Hyojin va Kim Youngjoo tomonidan olib borilgan tadqiqotda xitoylik koreys tili o'rganuvchilari koreys dramalarini turli subtitrlar sharoitlarida tomosha qilgan va pre-test/post-test orqali lug'at o'zlashtirilishi tekshirilgan [11, pp. 131–157].

Demak, K-drama faqat ko'ngilochar mahsulot emas, balki to'g'ri metodika bilan qo'llanganda autentik til materiallari vazifasini ham bajarishi mumkin.

Kundalik yozish va faol til ishlab chiqarish

Tilni tushunish bilan uni mustaqil ishlab chiqarish bir xil jarayon emas. O'quvchi ko'plab koreyscha gaplarni tushunishi mumkin, ammo o'zi gap tuzishda qiynalishi ehtimoli mavjud. Shu sababli muntazam yozma mashqlar til birliklarini faol qo'llashga yordam beradi.

Kundalik yozish uchun katta hajmdagi insho shart emas. Har kuni koreys tilida 3–5 ta gap yozish, keyinchalik ularni murakkablashtirish mumkin. Masalan:

오늘 날씨가 좋아요.

친구와 커피를 마셨어요.

Keyingi bosqichda ikki yoki undan ortiq grammatik birlikni birlashtiruvchi murakkabroq gaplardan foydalanish mumkin.

Lug'at o'zlashtirish bo'yicha tadqiqotlar ham faol ishlab chiqarish va retrieval practice muhimligini ko'rsatadi. Kang va boshqa tadqiqotchilar xorijiy til so'zlarini o'rganishda xotiradan so'zni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan mashqlar oddiy taqlid qilishdan samaraliroq bo'lishi mumkinligini ko'rsatgan [12, pp. 425–432].

Shu nuqtayi nazardan, kundalik yozish mashqi o'quvchini "so'zni bilish"dan "so'zni qo'llash" bosqichiga olib o'tuvchi vosita sifatida qaralishi mumkin.

TOPIK orqali o'zlashtirish darajasini diagnostik baholash

Til o'rganish jarayonida baholash nafaqat yakuniy natijani aniqlash, balki mavjud kamchiliklarni topish uchun ham xizmat qiladi. Koreys tilini o'rganayotganlar uchun TOPIK — Test of Proficiency in Korean — muhim standartlashtirilgan baholash vositalaridan biridir.

Koreya Milliy Xalqaro Ta'lim Instituti ma'lumotlariga ko'ra, TOPIK I boshlang'ich darajani, TOPIK II esa o'rta va yuqori darajalarni baholaydi. An'anaviy TOPIK II tinglab tushunish, o'qish va yozish qismlaridan iborat bo'lib, jami 300 ballik

tizimga ega. 3-daraja 120–149, 4-daraja 150–189, 5-daraja 190–229 va 6-daraja 230–300 ball oralig'iga to'g'ri keladi [13].

TOPIKning yangi raqamli shakllari ham ishlab chiqilgan. Rasmiy ma'lumotlarda TOPIK II IBT uchun jami 600 ballik tizim va alohida tinglab tushunish, o'qish hamda yozish qismlari ko'rsatilgan [13].

TOPIKni faqat sertifikat olish vositasi sifatida emas, diagnostik mexanizm sifatida ham qo'llash mumkin. Masalan, test natijalari orqali o'quvchi o'qish, tinglash yoki yozish ko'nikmalaridan qaysi biri ustida ko'proq ishlashi kerakligini aniqlashi mumkin.

Tahlil va muhokama

Tadqiqot natijalari oltita metodning har biri koreys tilini o'rganishning ma'lum bir komponentiga xizmat qilishini ko'rsatadi. Flashcard va interval asosida takrorlash asosan lug'at va xotira jarayonlarini qo'llab-quvvatlash, o'qituvchi feedbacki grammatik va kommunikativ aniqlikni oshirishga yordam beradi. AI individual mashg'ulot imkoniyatlarini kengaytiradi, audiovizual materiallar tinglab tushunish va kontekstual lug'atni rivojlantiradi, kundalik yozish faol til ishlab chiqarishni kuchaytiradi, TOPIK esa o'zlashtirish darajasini standartlashtirilgan mezonlar asosida baholash imkonini beradi.

Mobil texnologiyalar bo'yicha tizimli sharhlarda ham mobil qurilmalar til o'rganish uchun individual, kontekstga bog'langan va moslashuvchan muhit yaratishi mumkinligi qayd etilgan. Persson va Nouri 2018-yilda 2010-yildan keyingi tadqiqotlarni tizimli ravishda ko'rib chiqib, 1424 ta manbadan 54 tasini belgilangan mezonlar asosida tanlagan [14, pp. 188–210]. Shuningdek, mobil texnologiyalar bo'yicha meta-tahlillarda lug'at o'rganishda mobil qurilmalardan foydalanish ijobiy natijalar bilan bog'langan [15, pp. 878–919].

Biroq zamonaviy texnologiyalardan foydalanish avtomatik ravishda yuqori natija bermaydi. Texnologiyaning samaradorligi uning qanday pedagogik maqsadda ishlatilishiga bog'liq. Masalan, Quizletda yuzlab so'zlarni shunchaki ko'rib chiqish bilan ularni faol esga tushirish bir xil natijani bermasligi mumkin. Xuddi shuningdek, K-dramani passiv tomosha qilish bilan koreyscha subtitrlar, yangi iboralarini qayd qilish va nutqni takrorlashdan iborat faol mashqning pedagogik qiymati bir xil emas.

AI bo'yicha tadqiqotlar ham ehtiyotkor yondashuvni talab qiladi. 2024-yilgi tizimli sharhlar ChatGPTning til ta'limidagi imkoniyatlari keng ekanini ko'rsatgan bo'lsa-da, uzoq muddatli ta'sir, feedbackning aniqligi va o'quvchi tomonidan AIGA haddan tashqari bog'lanish kabi masalalar hali qo'shimcha tadqiqotlarni talab qiladi [8; 9].

Koreys tilini o'rganishda yana bir muhim masala — kommunikativ kompetensiyadir. Koreys tilidagi nutq darajalari va hurmat shakllari faqat grammatik qoidalar sifatida emas, balki ijtimoiy vaziyat bilan bog'langan kommunikativ hodisa sifatida o'rganilishi lozim. Koreys tilidagi hurmat shakllari bo'yicha tadqiqotlarda ularning ijtimoiy munosabatlar va nutq vaziyatlari bilan bog'liqligi ko'rsatilgan [3; 7].

Shu sababli oltita metodni alohida emas, balki yagona tizim sifatida birlashtirish maqsadga muvofiq. Masalan,

bir kunlik o'quv siklini quyidagicha tashkil etish mumkin: yangi so'zlarni flashcard orqali o'rganish; o'qituvchi yoki AI bilan qisqa dialog mashqi bajarish; koreyscha subtitrli videodan 10–15 daqiqalik parcha ko'rish; yangi grammatik birliklardan foydalanib 3–5 ta gap yozish; haftada bir marta TOPIK formatidagi test orqali o'zlashtirishni tekshirish. Bunday integratsiyalashgan yondashuvning afzalligi shundaki, bir xil til birligi turli kanallarda qayta ishlanadi: o'quvchi uni ko'radi, eshitadi, esga tushiradi, yozadi va kommunikativ vaziyatda qo'llaydi.

Xulosa

Koreys tilini samarali o'rganish zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning o'zi bilan emas, balki ilmiy asoslangan pedagogik tamoyillarni muntazam qo'llash bilan bog'liq. Mazkur maqolada tahlil qilingan oltita metod — interval asosida takrorlash, tajribali o'qituvchi feedbacki, sun'iy intellektidan foydalanish, koreys audiovizual kontentini faol o'rganish, kundalik yozish va TOPIK orqali diagnostik baholash — til o'rganish jarayonining turli jihatlarini to'ldiradi. Ilmiy tadqiqotlar interval asosida takrorlash va retrieval practice lug'at o'zlashtirishda muhim ekanini ko'rsatadi [4; 5; 12]. O'qituvchi feedbacki esa til shakllarining to'g'ri o'zlashtirilishi va uzoq muddatli rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [6]. Subtitrlar videolar bo'yicha meta-tahlil ularning tinglab tushunish va lug'at o'zlashtirishdagi ijobiy ta'sirini ko'rsatgan [10]. Mobil texnologiyalar bo'yicha tadqiqotlar esa raqamli vositalarning til o'rganish jarayonini moslashuvchan va individual qilish imkoniyatlarini ko'rsatadi [14; 15].

Sun'iy intellekt esa til o'rganuvchiga doimiy mashq qilish, dialog yaratish va yozma ishlarini tahlil qilish imkoniyatini beruvchi yangi vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq AI o'qituvchining o'rnini to'liq egallovchi vosita emas, balki o'quvchi va o'qituvchining faoliyatini to'ldiruvchi texnologiya sifatida qo'llanishi maqsadga muvofiq.

Koreys tilining xalqaro miqyosda o'rganilish ko'lami ham mazkur yo'nalishning dolzarbligini tasdiqlaydi. 2023-yilda King Sejong institutlarida 216 226 nafar tinglovchining tahsil olgani [1], 2024-yilda institutlar sonining 88 mamlakatda 256 taga yetgani [1] koreys tili ta'limining xalqaro miqyosda kengayayotganini ko'rsatadi.

Shunday qilib, koreys tilini o'rganishda eng maqbul strategiya bitta "ideal" dastur yoki metodni izlash emas, balki bir-birini to'ldiruvchi usullarni tizimli ravishda birlashtirishdir. Lug'atni muntazam takrorlash, o'qituvchi feedbacki, AI bilan individual mashq, real koreys kontentini tinglash va ko'rish, kundalik yozish hamda TOPIK orqali muntazam diagnostika qilish til o'rganuvchining turli kompetensiyalarini parallel rivojlantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1] King Sejong Institute Foundation. *18 New KSI Locations Designated in 15 Countries for 2024, Expanding to 256 Locations in 88 Countries*. 2024. Ma'lumotlar: elektron rasmiy hisobot/material, 1–3-betlar.
- [2] Korea Foundation; Ministry of Foreign Affairs, Republic of Korea. *No. of Global Hallyu Fans Last Year Broke 200M Mark: Survey*. 2024. Ma'lumotlar: 1–3-betlar.
- [3] Yoo, Y., Kim, K.-H., Lee, J. *A Study on Honorifics in Korean Language Textbooks: Focusing on Discourse Text Analysis in Kyung Hee University Textbooks and Sungkyunkwan University Textbooks for Advanced Learners*. Language Science Research, 2022, No. 103. pp. 301–339.
- [4] Nakata, T. *Effects of Expanding and Equal Spacing on Second Language Vocabulary Learning: Does Gradually Increasing Spacing Increase Vocabulary Learning?* Studies in Second Language Acquisition, 2015, Vol. 37, No. 4. pp. 677–711.
- [5] Yanagisawa, A. *The Effects of Receptive and Productive Word Retrieval Practice on Second Language Vocabulary Learning*. KATE Journal, 2016, Vol. 30. pp. 139–152.
- [6] Lyster, R., Saito, K. *Oral Feedback in Classroom SLA: A Meta-Analysis*. Studies in Second Language Acquisition, 2010, Vol. 32, No. 2. pp. 265–302.
- [7] Kim, H. *Corpus-Based Analysis of Honorifics in Korean and Its Pedagogical Implication: Focusing on the Speech Level Shift from Non-Honorifics to Honorifics*. Korean Linguistics, 2022, Vol. 18, No. 2. pp. 159–181.
- [8] *ChatGPT for L2 Learning: Current Status and Implications*. System, 2024. Vol. 125. Article 103351. Ma'lumotlar: maqola abstrakti va tahliliy qismlar.
- [9] *A Systematic Review of the First Year of Publications on ChatGPT and Language Education: Examining Research on ChatGPT's Use in Language Learning and Teaching*. Computers and Education: Artificial Intelligence, 2024, Vol. 7. Article 100266. Ma'lumotlar: 1–18-betlar.
- [10] Montero Perez, M., Peters, E., Desmet, P. *Captioned Video for L2 Listening and Vocabulary Learning: A Meta-Analysis*. System, 2013, Vol. 41, No. 3. pp. 720–739.
- [11] Park, H., Kim, Y. *A Study on the Incidental Vocabulary Learning Patterns by Subtitle Language Type*. Language Facts and Perspectives, 2023, Vol. 58. pp. 131–157.
- [12] Kang, S. H. K., et al. *Don't Just Repeat After Me: Retrieval Practice Is Better Than Imitation for Foreign Vocabulary Learning*. Memory & Cognition, 2014. pp. 425–432.
- [13] National Institute for International Education. *Test of Proficiency in Korean (TOPIK): Test Levels and Evaluation Grades*. Republic of Korea, 2025. Ma'lumotlar: rasmiy TOPIK tavsifi, 1–4-betlar.
- [14] Persson, V., Nouri, J. *A Systematic Review of Second Language Learning with Mobile Technologies*. International Journal of Emerging Technologies in Learning, 2018, Vol. 13, No. 2. pp. 188–210.
- [15] *Mobile-Assisted ESL/EFL Vocabulary Learning: A Systematic Review and Meta-Analysis*. Computer Assisted Language Learning, 2019, Vol. 32, No. 8. pp. 878–919.
- [16] Peters, E., Webb, S. *Incidental Vocabulary Acquisition Through Viewing L2 Television and Factors That Affect Learning*. Studies in Second Language Acquisition, 2018. Ma'lumotlar: maqolaning metodologiya va natijalar qismlari.
- [17] Fu, Q.-K. *Impacts of Mobile Technologies, Systems and Resources on Language Learning: A Systematic Review of Selected Journal Publications from 2007–2016*. Knowledge Management & E-Learning, 2018, Vol. 10, No. 4. pp. 375–394.
- [18] King Sejong Institute Foundation. *2023 KSI Learner Satisfaction Survey*. 2024. Ma'lumotlar: 2023-

yil global o'quvchilar so'rovi; 15 325 nafar respondent,
umumiy qoniqish ko'rsatkichi 91,1 ball.